

**Iste'dodli mualliflarni aniqlash va ularga ijod qilish uchun
sharoit yaratish tartibi to'g'risida
NIZOM**

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom tanlov asosida Iste'dodli mualliflarni aniqlash va ularga ijod qilish uchun sharoit yaratish maqsadida **Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi** hisobidan bir yilgacha muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorida har oy (bir yilgacha) haq to'lash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

mualliflik huquqi obyekti – ro'yxati O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 6-moddasida keltirilgan mualliflik huquqi obyektlari (barcha turdagi EHM uchun dasturlar, shu jumladan har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, chunonchi boshlang'ich matn hamda obyekt kodida ifodalanishi mumkin bo'lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari bundan mustasno);

talabgor – ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashni so'rab tanlovda ishtirok etish uchun murojaat qilgan, muqaddam mualliflik huquqi obyektini yaratgan ijodkor;

tanlov – kelgusidagi ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, belgilangan muddat davomida haq to'lash orqali mualliflik huquqi obyektini yaratishga qulay sharoit yaratish uchun talabgorlarni saralash jarayon;

Vasiylik kengashi – tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholining kitob o'qishga qiziqishini orttirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-9-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi Vasiylik kengashi;

Ekspertlar guruhi – Vasiylik kengashi tavsiyasi asosida grant olishga talabgor yosh yozuvchilarning ijodiy loyihalarini ko'rib chiqib, ular yuzasidan xulosa berishga jalb etiladigan, Yoshlar ishlari agentligi bilan tuziladigan shartnoma asosida faoliyat yurituvchi mutaxassislar (adiblar, adabiyotshunoslar, noshirlar va boshqalar)dan iborat guruh.

**II bob. Iste'dodli mualliflarni aniqlash
bo'yicha tanlov tashkil etish**

3. Iste'dodli mualliflarni aniqlash bo'yicha tanlov (keyingi o'rinlarda – Tanlov) har yili kamida bir marta o'tkaziladi, uni o'tkazish muddati Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

4. Tanlov quyidagi to'rt bosqichda tashkil etiladi:

Birinchi bosqichda tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab, bir oy davomida rag'batlantirishga talabgor iste'dodli ijodkorlar e'londa ko'rsatilgan elektron manzilga elektron shakldagi quyidagi hujjatlar taqdim etadi:

– Vasiylik kengashi nomiga ariza;

- Ijodiy uyushma tavsiyanomasi;
 - Taniqli adiblarning talabgor haqida fikrnomalari (ixtiyoriy);
 - talabgorning ushbu davrga qadar OAVda e’lon qilgan, kitob shaklida chop etilgan asarlari (kamida bir nusxa) yoki boshqacha shaklda jamoatchilikka e’lon qilingan mualliflik huquqi obyektini, shu jumladan asarlari asosida yaratilgan kino va spektakllar videotasviri;
 - talabgorning erishgan ijodiy yutuqlari, asarlari uchun olgan mukofot va unvonlari haqidagi hujjatlar nusxalari (ixtiyoriy);
 - ijodkorning istiqboldagi ijodiy rejasi, ya’ni rag’batlantirilishi davomida yaratishi rejalashtirilgan badiiy asarining g’oyaviy-badiiy konsepsiyasi va sinopsisi;
 - shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar (pasport yoki ID nusxasi).
- Talabgorning faoliyati yoki asarlari bilan bog’liq boshqa qo’shimcha hujjatlarni ham taqdim qilishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda Ekspertlar guruhi tomonidan bir oy muddatda talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, ularning mulk huquqi obyektlari va ijodiy rejaları ko‘rib chiqiladi hamda saralanadi. Bunda talabgorning ijodiy salohiyati, erishgan natijalari hamda yaratmoqchi bo‘lgan asarining g’oyaviy-badiiy ahamiyati inobatga olinadi.

Ushbu bosqich yakuniga ko‘ra 20 nafargacha munosib talabgorlar saralab olinadi hamda keyingi bosqichga tavsiya etiladi.

Uchinchi bosqichda o‘n kun ichida saralangan talabgorlar Ekspert guruhiga o‘zlarining ijodiy rejasi, ya’ni yaratmoqchi bo‘lgan mulk huquqi obyektini haqida taqdimot qiladi (*hududlarda istiqomat qiluvchi yoki xorijda safarda bo‘lgan talabgorlar uchun onlayn taqdimot qilishga sharoit yaratib beriladi*).

Bunda yaratiladigan asar mavzusining originalligi, yangiligi, xalqimiz ma’naviyati va milliy yuksalishida tutadigan o‘rni, xalqaro adabiy muhitda e’tiborni tortadigan xususiyatlari hamda boshqa ijobiy ahamiyatga molik tomonlariga e’tibor qaratiladi.

Ushbu bosqich yakuniga ko‘ra 10 nafargacha eng munosib talabgorlar tanlab olinadi, ularning har biri haqida xulosalar yoziladi hamda haq to‘lash uchun Vasiylik kengashiga tavsiya etiladi.

To‘rtinchi bosqichda o‘n besh kun ichida Vasiylik kengashi tomonidan tanlovning 1–3-bosqich yakunlari bo‘yicha Ekspertlar guruhi axborotlari tinglanadi, xulosalari ko‘rib chiqiladi hamda yakuniy qaror qabul qilinadi.

III bob. Talabgorlarni rag‘batlantirish tartibi

5. Vasiylik Kengashining tanlov yakunlari yuzasidan chiqargan qarori asosida bir hafta muddatda talabgorlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida Yoshlar ishlar agentligi direktorining buyrug‘i chiqariladi.

6. Yoshlar ishlar agentligi direktorining buyrug‘i asosida talabgorlar bilan besh ish kuni ichida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1037-moddasida belgilangan tartibda fuqarolik huquqiy shartnoma tuziladi.

Shartnomada taraflar huquq va majburiyatlari, talabgorga to‘lanadigan har oylik haq miqdori va muddati (bir yilgacha muddatga har oy bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshmagan miqdorda), haq evaziga tayyorlanadigan mualliflik huquqi obyektini tayyor holatga kelganda uning tavsiflari, uni yaratish muddati, taraflarning javobgarligi va boshqa qoidalar ko‘rsatiladi.

7. Shartnomaga asosan talabgor ijodiy jarayon to‘g‘risida Ekspertlar guruhiga oylik hisobotlar taqdim etib boradi. Bunda yaratilishi rejalashtirilgan mualliflik huquqi obyektining umumiy hajmidan kelib chiqqan holda oyma-oy hisobot berib boriladi.

Talabgor tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va amalga oshirilgan ishlar Ekspertlar guruhi tomonidan ma’qullanganda, talabgorga keyingi oy uchun haq to‘lab beriladi.

Talabgor uzrli sabablarsiz o‘z vaqtida hisobot taqdim etmagan yoki shartnoma shartlarini bajarmagan, mualliflik huquqi obyektini yaratishni yakunlamagan taqdirda unga haq to‘lash Vasiylik kengashi qarori asosida to‘xtatiladi hamda Agentlik tomonidan sud tartibida avval to‘langan mablag‘lar talabgordan undiriladi.

8. Ijodiy jarayon shartnomada belgilangan muddatda uzrli sabablarga ko‘ra yakunlanmagan taqdirda, Vasiylik kengashi tomonidan muallifga asarini yakunlash uchun ikki oydan oshmagan qo‘shimcha muddat berilishi mumkin, bunda talabgorga shartnoma summasidan ortiqcha haq to‘lanmaydi.

9. Iste’dodli muallif asarini yakunlagach, Yoshlar ishlari agentligiga 100 nusxa chop etilgan holda beg‘araz taqdim etadi yoki uning elektron shaklini “Mutolaa” platformasiga ochiq foydalanish imkoniyati bilan joylashtirish huquqini taqdim etadi.

10. Rag‘batlantirilgan hamda shartnoma shartlarini o‘z muddatida bajargan mualliflar uch yildan so‘ng ushbu tanlovda qayta ishtirok etishi mumkin.

IV bob. Yakuniy qoidalar

11. Tanlovning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi rasmiy veb-sayti va OAVlarda jarayon yoritib boriladi.

12. Tanlov ishtirokchilari tomonidan bildirilgan e’tiroz va shikoyatlar qonunchilikda belgilangan tartibda Vasiylik kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi.